

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

Sh.Hakimova O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar	118
I.Bohodirov, B.Jurayev Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari	140
N.Komilov Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya	158
S.Isroilova, G.Karimova Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
E.Qurbonova Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev So'z yasalanishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'ldosheva Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Попубай Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

“QANOTLI SO‘Z” VA “SITATA” TUSHUNCHALARININGO‘ZARO FARQI

РАЗЛИЧИЕ МЕЖДУ ПОНЯТИЯМИ “КРЫЛАТЫЕ СЛОВА” И “ЦИТАТЫ”

DIFFERENCES BETWEEN THE CONCEPTS OF “WINGED WORDS” AND “QUOTATIONS”

Isakova Go‘zalxon Ne‘matovna¹¹Isakova Go‘zalxon Ne‘matovna

–Yevropa tibbiyot universiteti (O‘zbekiston) filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Qanotli so‘zlar milliy va dunyo madaniyatida alohida o‘ringa ega bo‘lib, ular sayqallangan shaklda mashhur faylasuf, olim, yozuvchi va davlat arboblarning fikrlaridir. Ular asrlar osha tildan-tilga o‘tib, nutqimizni bezab kelayotgan ma‘nodor til birligi sanaladi. Quyidagi maqolada turli xarakter-xususiyat va holatlarni lo‘nda ifodalashga xizmat qiladigan sermazmun va obrazli ifodalar, ya‘ni qanotli so‘zlar va ularning sitalarlardan farqi borasida so‘z yuritiladi.

Аннотация

Крылатые слова занимают особое место в национальной и мировой культуре, они считаются отшлифованными художественными выражениями известных философов, ученых, писателей и государственных деятелей. Также они являются содержательной языковой единицей, которые переходя из языка в язык украшают нашу речь. В данной статье речь ведется об отличии крылатых слов от цитат, которые служат для лаконичного выражения различных черт характера и ситуаций в образных выражениях.

Abstract

Winged words have a great role in the national and world culture. They are the words of great philosophers, scientists, writers and statesmen. They are the word combinations which make our speech more meaningful and bright. This article deals with the concept of winged words and their differences from quotations that serve to express succinctly various character traits and situations in figurative expressions.

Kalit so‘zlar: qanotli so‘z, sitata, obrazli, ma‘nodor, manba, muallif, umumlashtiruvchi, farqlovchi.

Ключевые слова: крылатые слова, цитата, образный, смысловой, источник, автор, обобщающий, дифференцирующий.

Key words: winged words, quotation, figurative, semantic, source, author, generalizing, differentiating.

Kirish. Qanotli so‘zlar dunyo madaniyatida va har bir xalqning milliy madaniyatida alohida o‘ringa ega bo‘lib, ular mashhur faylasuflar, olimlar, yozuvchilar va davlat arboblarning sayqallangan shakldagi fikrlaridir. Qanotli so‘zlar nutqda *obrazli sitata* sifatida foydalanilayotgan alohida iboralar sanaladi. Qanotli so‘z va iboralardan sitata sifatida foydalanish uzoqroq davrga borib taqalsa-da, XX asrga kelib ularning ilmiy tadqiqi anchagina sezilarli darajada tus oldi. Ular ko‘plab shaxslar til boyligining faol fondiga kirgan bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy va jamoaviy xulqning eng muhim omili hisoblanadi. Qanotli so‘zlar va iboralar nutqni jonlantiradi, uni yanada hissiy, rang-barang, obrazli va ta‘sirchan qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon tilshunosligida qanotli so‘zlarni ilmiy jihatdan o‘rganish nemis olimi Georg Byuxman tomonidan boshlab berilgan. Muallifning 1866 yili nashr etilgan “Geflugelte Worte” risolasida nemis tilidagi ko‘plab qanotli so‘zlarning kelib chiqish tarixini yoritadi va ularni izohlaydi [2].

Rus tilshunosligida qanotli so‘zlar tadqiqining boshlanishi S.V.Maksimov va I.E.Timoshenkolarning qo‘llanmalarini maydonga kelishi bilan bog‘liq [4]. M.I.Mixelson, S.G.Zaymovskiy, V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, A.V.Kunin, A.E.Efimov kabi yirik rus olimlari qanotli so‘zlar tadqiqining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Shuningdek, qanotli so‘zlar tadqiqiga oid muammolar N.S.Ashukin, M.G.Ashukina, M.A.Bulatov, A.M.Babkin, V.P.Berkov, E.M.Soloduxo, G.L.Permyakov, V.G.Kostomarov, Ye.M.Vereshagin, A.P.Koval, V.V.Koptikov, S.G.Shulejkova singari olimlar tomonidan tadqiq etilgan va rus tilidagi mavjud qanotli so‘zlarning kelib chiqish tarixiga, qo‘llanilishiga oid ilmiy manbalar yaratilgan.

Fransuz tilshunosligida qanotli so‘zlar alohida til birligi sifatida o‘rganilmagan, alohida termin sifatida ham mavjud emas. Fransuz tilida qanotli so‘zlar sitata tushunchasining bir ko‘rinishi, ya‘ni

mashhur, taniqli sitata sifatida izohlanadi. Lotin va fransuz tillaridagi qanotli soʻzlarning kelib chiqish tarixi, izohi hamda qoʻllanilishiga oid rus tilshunoslari tomonidan yaratilgan manbalar mavjud. Masalan, I.N.Timeskovaning fransuz tili qanotli soʻzlariga, N.O.Ovruskiyning lotin tili qanotli soʻzlariga bagʻishlangan toʻplamlari chop etilgan [7].

Taqiqot metodologiyasi. Qanotli soʻz va sitata tushunchasi oʻrtasida oʻxshash va farqli jihatlar mavjud. Bu borada professor V.P.Berkov ishlariga alohida toʻxtalib oʻtish joiz. U rus tilshunosligida ilgari izohlanmagan koʻplab qanotli soʻzlarni tadqiq qilgan [1; 6]. U risolalarining soʻzboshisida rus ilmiy anʼanalariga kirgan qanotli soʻzlar haqidagi tushunchaning birinchidan funksiyasi, ikkinchidan yaqqol tasvirlangan milliy xarakteri, uchinchidan ularning ommabop sitatalardan farqini taʼkidlab, maʼlum darajada oydinlashtiradi.

I.A.Uolsh va V.P.Berkovlar: “Qanotli soʻzlar juda muhim va oʻziga xos funksiyani bajaradi. Ular insonga fikrni loʻnda va yorqin tasvirlash imkonini beradi hamda boshqa vositalar bajara olmaydigan chuqur maʼnoli mulohaza haqida xabar beradi. Ular asosan bilimli shaxslar nutqiga xos. Qanotli soʻzlar boshqa birliklardan farqli ravishda, oʻsha davlat tarixi, uning madaniyati, xalqining xarakteri haqida maʼlumot berib, oʻzida yaqqol milliy alomatni ifodalaydi”, deb taʼkidlashadi. Shuningdek, koʻplab qanotli soʻzlarning sitata ekanligi borasida: “Ommabop sitatalar doimo oʻzining bosh maʼnosini saqlaydi va shuning uchun ularni koʻchma maʼnoliligi bilan xarakterlanuvchi qanotli soʻzlardan farqlash qiyinchilik tugʻdirmaydi”, degan fikrni bildirishadi. Mualliflarning koʻrsatishi boʻyicha: “Qanotli soʻzlar ommabop sitatalardan faqat maʼnoviy jihatdan farqlanadi. Agar birinchisi aforistik xarakterga ega boʻlsa va chuqur falsafiy fikrlarni ifodalasa, keyingisi kundalik holatlarga tegishli yoki tasvirlovchi hisoblanadi” [8, 6-7].

Sitata va qanotli ibora murakkab soʻz qurilmasini bir-biriga yaqinlashtiradi, lekin qanotli soʻzlarning komponent tarkibi oʻzining uzual birikkan chegaralariga ega. Bu paytda sitataning koʻlami butunligicha iqtibos olayotgan shaxsga bogʻliq. Sitata ham qanotli soʻz ham oʻz manbasi haqidagi genetik xotiraga ega.

Masalan, “asosiysini unutmok” maʼnosini anglatuvchi *Oublier d’éclairer sa lanterne*, yaʼni *Fonarni yoqishni unutmok* qanotli iborasi orqali Florianning “Le Singe qui montre la lanterne magique” masali yodga keladi. Masaldagi maymunning hayvonlarni kengashga chaqirishi, ularga nimalarni koʻrishlarini balandparvozlik bilan eʼlon qilishi hamda fonarni yoqishni unutib qoʻyganligi uchun tomoshabinlar qorongʻilikda qolib hech narsani koʻra olmaganliklari xotiradan oʻtadi.

Bu borada tilshunos V.Xlebda shunday yozadi: “Oʻz mohiyatiga koʻra har doim idiolektal tarzda belgilangan parol sferasining elementi individual va takrorlanmas nutqning ajralmas qismi hamda dalilidir”. Shuningdek, muallif sitatalarning xususiy mulk ekanligi, uni maʼlum shartlar bilan vaqtinchalik olish va olinganligi albatta koʻrsatilishi shartligi, qanotli soʻzlarning esa, jamoaviy mulkka aylana borishi haqida fikr bildiradi [10, 2-3].

Yuqorida keltirilgan tasniflardan koʻrinib turibdiki, mualliflar turlicha fikrlar bildirsalarda, mohiyati boʻyicha bir-birlariga toʻgʻri keladi. A.Uspenskiy E.Vartanyanning “Iz jizni slov” nomli kitobiga yozgan soʻz boshisida keltirilgan munosabat qanotli soʻzlarni aniqlashga birmuncha oydinlik kiritadi: “Bunday birikmalarga xos boʻlgan belgilar shuki, baʼzida ular juda oddiy, baʼzida esa bir necha zoʻr berishdan soʻng ularni qachon, qayerda, qanday sharoitda vujudga kelganligini va mualliflari kim ekanligini topamiz. Ular aniq bir yaratuvchisiga ega va ushbu yaratuvchilarni topish mumkin” [3].

Demak, tadqiqotchilar qanotli soʻzlarning aniq bir yozma manba yoki aniq bir shaxsning mulohazasidan olingan, ancha keng tarqalgan obrazli sitata ekanligi borasida bir toʻxtamga keladilar.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan fikrlarga qoʻshilgan holda qanotli soʻzlar va sitatalarni tahlillarda kuzatamiz:

Alea jacta est (lot.). Svetoniyning “De Vita XII Caesarum” manbasida yozishicha, Sezar ushbu *Qur’a tashlandi* qanotli iborani qoʻshini bilan Italiyani Rim provinsiyasidan ajratib turuvchi Rubikon koʻlidan oʻtayotib aytgan: *Tunc Caesar, Eatur, inquit, quo deorum ostenta et inimicorum iniquitas vocat. Jacta alea esto, yaʼni Oldinga, - deb qichqirdi Sezar, Xudolarning ishorasi va dushmanlarning nohaqligi bizni chorlamoqda. Qur’a tashlandi.* G.Yu.Sezar faqatgina Italiya tashqarisida qoʻshinni boshqarishi mumkin boʻlgani holda, qonunni buzib Italiya hududiga kirib qoladi va natijada grajdanlar urushi boshlanib ketadi. Shunga koʻra Sezarning nutqidan olingan

TILSHUNOSLIK

Qur'a tashlandi qanotli iborasi “qaytarib olinmaydigan qaror”, “o'zgartirib bo'lmaydigan vaziyat” ma'nolarida qo'llanadi.

Fransuz tilida qanotli so'z termini “citation” deb yuritiladi. Fransuz tilining entsiklopedik lug'ati “Le Petit Larousse”da ushbu terminning lotin tilidan o'zlashganligi aytilgan. Unda terminning biror muallif tomonidan aniq aytilgan parcha ma'nosini ifodalashi berilgan. Shuning uchun “citation” termini ostida ham oddiy ham obrazli sitatalar, ya'ni qanotli so'zlar tushuniladi. Chunki ularning har ikkisi ham aniq muallif yoki manbaga ega bo'lib, ular kerakli o'rinlarda qo'llanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ham sitata terminining lotin tilidan o'zlashganligi (lot.citatum) va biror matndan, adabiy, musiqaviy va sh.k. asardan aynan ko'chirilgan parcha; iqtibos ekanligi berilgan [9, 443].

Ma'lumki, biror bir tushuncha borasida o'zgalarning fikrini dalil sifatida ko'rsatish uchun, fikrni isbotlash yoki o'zgalarning fikriga o'z munosabatimizni bildirish uchun sitatalardan foydalanamiz. Ular ko'proq ilmiy qarashlarni o'z ichiga olishi mumkin va ularning albatta mualliflari ko'rsatiladi.

Obrazli sitatalar, ya'ni qanotli so'zlar oddiy sitatalardan ma'lum jihatlari bilan farqlanadi. Ular kundalik hayotda ko'p kuzatiladigan voqea, hodisalarni ixcham va obrazli tasvirlaydigan so'z, ibora va gaplardir. Qanotli so'zlardan foydalanish, ularni matnga kiritish erkin hisoblanadi. Ularning muallifi yoki manbasini ko'rsatish, ko'rsatmaslik yohud turli stilistik uslublar yordamida o'zgartirilishi to'liq qanotli so'zdan foydalanuvchining ixtiyoridadir. Ularning bu kabi jihatlari tilga tez o'zlashtirilishiga va nutqda faol qo'llanilishiga sabab bo'ladi, desak adashmaymiz.

Masalan, Goratsiyga mansub “boshlanish” ma'nosini anglatuvchi *Ab ovo*, ya'ni *Tuxumdan* (so'zma-so'z tarjimasini) qanotli so'zi mualliflar tomonidan turlicha usullarda matnga kiritilganligi ko'rinadi:

1) *Cette manière de prendre toutes les questions ab ovo comme si on avait affaire à des écoliers, on l'appelle sans doute dans l'opposition de la clarté.* (P.Mérimée, Lettres à Viollette-Duc)

2) *Je suis fort aise d'avoir entamé mon histoire par la relation de mes faits et gestes, comme dit Horace, ab ovo, depuis l'œuf où j'ai commencé à végéter.* (Sterne, Oeuvres complètes)

3) *Il était patriote, moi je ne le suis pas, parce que, le patriotisme, c'est encore une religion. C'est l'œuf des guerres.* (Maupassant, Contes et nouvelles)

Ko'rinadiki, birinchi kontekstda muallif tomonidan *Ab ovo* qanotli iborasi biror belgisiz, ya'ni muallifi yoki manbasi haqida ma'lumot berilmasdan hamda o'zgarishlarsiz, lotin tilida qo'llangan. Ikkinchi parchada esa mazkur qanotli ibora muallifi ko'rsatilgan holda fransuz tilidagi shakli bilan birgalikda berilgan. Uchinchi parchada ushbu qanotli iboraning allyuziyaga uchragan holatini ko'rish mumkin.

Shu o'rinda yana bir misolga murojaat qilamiz:

Augagneur va parler. France est à la campagne:

Nous n'aurons aujourd'hui ni Colbert, ni Montaigne. (Toulet, Les Contrerimes)

Ushbu misolda mashhur fransuz yozuvchisi Bualoga mansub asosiy personajlarning yo'qligini anglatadigan *Ni Lambert ni Molière* qanotli iborasi model sifatida olingan, ya'ni boshqa mashhur kishilarning ismlari bilan almashtirilib qo'llangan.

Ko'rinadiki, mualliflar qanotli so'zlarni turli stilistik usullardan foydalangan holda erkin matnga kiritish imkoniga ega. Ularning turlicha qo'llanilishi obrazlilikni, ta'sirchanlikni oshiradi.

Xulosa. Qisqa qilib aytilganda, qanotli so'zlar va sitatalarni biror muallifga tegishlilik, ya'ni o'zganing fikri ekanligi ularni birlashtiruvchi jihatlardir. Shuning bilan birga ularning farqlovchi xususiyatlari ham mavjud. Sitatani biror g'oyaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlash maqsadida olish mumkin. Ularning hajmi ham qanotli so'zlarga qaraganda kengroq bo'lishi kuzatiladi va ular doimo o'z ma'nosida qo'llanadi. Shunga ko'ra qanotli so'zlarga nisbatan obrazli sitata yoki obrazli iqtibos tushunchalari mos keladi. Bundan kelib chiqadiki, tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan qanotli so'zlar sitatalardan farqlanadi. Ular alohida til birligi sifatida o'z mavqeiga, o'rniga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Берков В.П. Русско-норвежский словарь крылатых слов. – Москва: Русский язык. (Berkov V.P. Qanotli so'zlarning ruscha-norvegcha lug'ati. - Moskva: rus tili)

2. Buchmann G. Geflügelte Worte. Der Zitatenschatz der deutschen Volkes. Berlin: Haude und Spener, 1864. – 220 s. – Berlin: Haude und Spener, 1866. –234 s. (Бухманн Г. Гефлюгельте Ворте. Der Zitatenschatz der deutschen Volkes. Берлин: Haude und Spener, Берлин: Хауде и Шпенер)
3. Вартаньян А.Э. Из жизни слов. – Москва: Детская литература, 1963. –288 с. (Vartanyan A.E. So'z hayotidan Moskva Bolalar adabiyoti)
4. Максимов С.В. Крылатые слова. –Москва, 1891; Тимошенко И.Е. Литературные первоисточники и прототипы трёхсот русских пословиц и поговорок. –Киев: Типография П.Барского, 1897. –174 с. (Maksimov S.V. Qanotli so'zlar Moskva, Timoshenko I.E. Uch yuzta rus maqollari va maqollarining adabiy manbalari va prototiplari Barskiy bosmaxonasi)
5. Le Petit Larousse. Dictionnaire Encyclopédique. -Paris, 1993. (Ле Петит Ларусс Энциклопедический словарь Париж)
6. Серов В. Энциклопедический словарь крылатых слов и выражений. 2-е изд. –Москва: Локид Пресс, 2005. –880 с. (Serov V. Qanotli so'z va iboralarning entsiklopedik lug'ati 2-nashr Moskva Lokid Press)
7. Тимескова И.Н. Крылатые слова, их значение и происхождение. –Ленинград: Просвещение, 1974. –231 с.; Овруцкий Н.О. Крылатые латинские изречения в литературе. –Киев: АН УССР, 1962. –220 с. (Timeskova I.N. Qanotli so'zlar, ularning ma'nosi va kelib chiqishi Leningrad Ma'rifat Ovrutskiy N.O. Adabiyotda qanotli lotin maqollari Kiev Ukraina SSR Fanlar akademiyasi)
8. Уолш И.А., Берков В.П. Русско-английский словарь крылатых слов. –Москва: Русский язык, 1984. –280 с. (Walshch I.A., Berkov V.P. Qanotli so'zlarning ruscha-inglizcha lug'ati Moskva rus tili)
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy 2008. (Annotated dictionary of the Uzbek language. Volume 4 Tashkent National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific)
10. Chlebda W. Propozycje terminologiczne do opisu skrzydlatuch slow. 1998. –Стр. 2-3. (Chlebda W. Propozycje terminologiczne do opisu skrzydlatuch slow)

(Taqrizchi: SH.Iskandarova – Filologiya fanlari doktori, professor)